



## BOSHLANG'ICH SINIF YANGI AVLOD DARSLIKLARIDA FANLARARO INTEGRATSIYA

*Xoldarova I.V.*

*filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD*

*Yuldasheva M.T.*

*FarDU magistranti*

**Tayanch so'zlar:** boshlang'ich ta'lim, integratsiya, fanlararo aloqadorlik, ta'lim.

**Ключевые слова:** начальное образование, интеграция, междисциплинарность, образование.

**Key words:** primary education, integration, interdisciplinarity, education.

Kirish. Respublikamizda Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilayotgan hozirgi sharoitda ta'lim tizimini sifat jihatidan milliy va xorijiy tajriba uyg'unlashgan xalqaro standartlarga mos tarzda yangi bosqichga ko'tarish bo'yicha keng qamrovli islohotlarni amalga oshirish uchun belgilangan ustuvor topshiriqlarni amalga oshirish yo'lidagi eng muhim vazifalardan biri uzluksiz ta'lim tizimi o'qitish jarayonida fanlararo integratsiyani yo'lga qo'yish imkoniyatlaridan samarali foydalanishni samarali tashkil etishning zamonaviy texnologiyalarini amalga oshirishdir. Ozbek adabiy tanqidchi O. Sharafiddinov to'g'ri ta'kidlaganidek: «Cheksiz olamdagi katta-kichik har bir narsa o'zaro bog'liqlikda yaratilgani va biri boshqasining mavjudligini ta'minlab turgani uchun ham dunyoni bilishning uyushtirilgan pedagogik shakli bo'lmish ta'lim jarayonida ana shu uzviylik, chambars aloqadorlik hisobga olinishi lozim. O'zga insonlar ruhiyatidagi tovlanishlarni anglash asosida o'quvchilarda shaxslik sifatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan adabiy ta'limda ham fanlararo aloqa muhim ahamiyat kasb etadi. Adabiyot o'qitishda samaradorlikka erishish uchun uning maktabda o'qitiladigan o'zga o'quv fanlari bilan aloqasini ta'minlashga alohida e'tibor qaratish zarur». Ma'lumki, o'quv fanlari miqdorini oshirish, albatta, har doim ham ijobiy natija beravermaydi. Chunki bugungi zamonaviy texnologiya son orqasidan quvish emas, balki sifat o'zgarishlarining ham



bo'lishini taqozo etmoqda. Bu borada rivojlangan davlatlar tajribasidan foydalanish mumkin. Chunki ular allaqachon o'z ta'lim tizimiga integratsiyani olib kirgan va integrativ fanlarni joriy qilgan. Buyuk Britaniya, Koreya, Shveysariya, Vengriya, AQSh, Rossiya va boshqalar shular jumlasidandir. Bugungi kunda bizning ta'lim tizimimizga ham integratsiyalashish jarayoni kirib keldi. Integratsiya - «butun» degan ma'noni bildiradi, demak, bu tafakkur o'sishi jarayonining turli qism va elementlarini bitta butunga birlashtirishdir. Bu esa, ta'limda fanlararo aloqadorlikni, fanlarni bir-biri bilan chambarchas bog'liq holda o'qitishni ko'rsatadi. Keng ma'noda integratsiya deganda yaxlitlikning shakllanish jarayoni tushuniladi. Integratsiyaning o'zaro kirib borish jarayoni sifatida ta'rifi birining ikkinchisiga ajralishini emas, balki ularning birligini, ya'ni o'zaro ta'sir qiluvchi tizimlarni saqlab qolish va ular o'rtasida o'zaro aloqalarni o'rnatishni anglatadi. Ta'lim tizimiga nisbatan «integratsiya» tushunchasi ikki xil ma'noga ega bo'lishi mumkin: birinchidan, bu o'quvchi atrofidagi dunyoning yaxlit ko'rinishini yaratish (bu yerda integratsiya ta'lim maqsadi sifatida qaraladi); ikkinchidan, bu fan bilimlarini yaqinlashtirish uchun umumiy platformani topishdir (bu erda integratsiya o'rganish vositasidir). Integratsiya ta'limning maqsadi sifatida o'quvchiga dunyoning alohida qismlarining tizim sifatida bog'liqligini aks ettiruvchi bilimlarni berishi, bolani o'rganishning birinchi qadamlaridan boshlab dunyoni barcha elementlar o'zaro bog'liq bo'lgan bir butun sifatida tasavvur qilishga o'rgatishi kerak. Ushbu maqsadni amalga oshirish boshlang'ich maktabdayoq boshlanishi mumkin. Integratsiya ham an'anaviy fan bilimlari chorrahasida yangi g'oyalarni olish vositasidir.

**Adabiyotlar tahlili.** Boshlang'ich ta'limda fanlarni o'zaro bir biriga bog'lashdan asosiy maqsad o'quvchilarning qiziqishini va dars samaradorligini yanada oshirishdan iboratdir. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyevning «Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz», - degan fikri muhim ahamiyat kasb etadi. Maktablarda darslarni bir biri bilan aloqadorlikda tashkil etish bu hozirgi zamon talabi hisoblandi, bu o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantiradi, mantiqiy fikrlash qobiliyatini va amaliy bilimlarini ham rivojlantiradi. L.N. Baxareva o'zining «Boshlang'ich maktab o'quv mashg'ulotlarini o'lkashunoslik asosida integratsiyalash» maqolasida «Integratsiya - differensiya jarayonlari bilan birgalikda amalga oshirilayotgan fanlarni yaqinlashtirish va bog'lash jarayoni bo'lib, yangi, butun, yaxlit bilimlar yaratishga yordam beruvchi, fanlararo aloqalarni amalga oshiruvchi yuqori ko'rinishdir» - deb ta'kidlaydi.

Fanlarni integratsiya qilib dars o'tilganda quyidagilarga e'tibor berish kerak. - har bir dars muayyan maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi kerak; - fanlararo aloqalarga oid tanlangan qo'shimcha material o'tiladigan mavzu bilan bog'lanishi shart; - fan o'quvchilari faolligini oshirish maqsadida ular bilan ishlash yo'llarini aniqlash mumkin. Dars faqat ta'limiy bo'lib qolmasdan, o'quvchilarni insonparvarlik jihatlarini tarbiyalashga qaratilgan bo'lishi zarur. Mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda, tabiat, jamiyat, inson tafakkuri, taraqqiyoti haqidagi bilimlar respublikamiz kelajagiga ishonch va e'tiqodni shakllantirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Bu esa o'quvchi dunyoqarashini kengaytiradi. Umuman olganda integratsiya darsi bir- biriga mos kelishi ( mavzu jihatdan ) va puxta reja asosida tuzilgan bo'lishi kerak. Ta'limni integratsiyalashning asosiy maqsadi boshlang'ich maktabdayoq tabiat va jamiyat haqida yaxshi tasavvur qilish, misollarini qo'yish va ularning rivojlanishi qonunlariga o'z munosabatini bildirishni shakllantirishdir. Mana shuning uchun kichik maktab o'quvchisi predmet yoki voqea-hodisalarni bir necha tomondan ko'rish muhimdir: mantiqiy va emotsional tomondan, badiiy asarda va ilmiy-ommabop maqolalar, biolog, so'z ustasi, rassom, musiqachi nuqtayi nazaridan va boshqalar.









Boshlang'ich ta'limda integratsiya imkonlari chegaralangan. Bolalar boshlang'ich ta'limda juda ko'p hodisa, tushuncha, fanlar bilan tanishishadi, lekin ular to'g'risida elementar tushuncha olishadi. Keyingi yillarda mavjud bilimlarini to'ldirib va kengaytirib borishadi. Shuning uchun o'qituvchi bir xillikdan qochishi va rang - barang shakl va usullarda dars o'tishi talab etiladi. O'qituvchi integratsiyalashgan darsda quyidagilarni e'tiborga olishi kerak: darsning maqsadini, yangi ma'lumot manbalarini, har xil fanlarning ma'lumotlarini birlashtirish, bilimlarning funksional yo'nalishini, fan mazmunini qayta ishlash, eski shakllarni buzish, tizimda alohida bo'lgan elementlar orasida aloqalar yaratish. Fanlararo integratsiyaning yana bir muhim maqsadidan biri, o'zi ishlayotgan olam haqida narsa va hodisalar orasidagi bog'liqlik ta'minlashdan iborat. Integratsiyalashgan darslar o'quvchilarning charchog'ini va zerikib qolishini oldini oladi, ya'ni o'quvchilarni bir holatdan ikkinchi holatga o'tkazadi. Bundan tashqari o'quvchilarni ziyraklikni, hushyorlikka, intiluvchanlikka o'rgatib boradi. O'qituvchi boshlang'ich ta'limda integratsiyalashda turli xil ko'rgazmalardan, videorolik va tarqatmali materiallardan foydalanishi mumkin.

**Natijalar va muhokamalar.** Boshlang'ich ta'limda bir nechta fanlardan bitta o'qituvchi dars o'tadi va bu o'z o'zidan bu o'qituvchi o'zining fanlarini albatta bog'lab o'tadi. Boshlang'ich ta'limda ona tili, matematika, texnologiya,





tabiiy fan, ingliz tili va o`qish fanlari bilan integratsiyalash mumkin. Masalan ona tili fanini oladigan bo`lsak, bu fanni o`qish, matematika, tabiiy fan bilan bog`lash mumkin. Buni 2-sinf ona tili darsligining 26-27-sahifalarida berilgan mashqlar misolida ko`rib chiqamiz.

2-sinf ona tili darsligining 26- betida keltirilgan 4-mashqni bajarishdan oldin shaxs nomini bildirga so`zlar Kim? so`rog`iga javob bo`lishi, narsa nomini bildirgan so`zlar esa Nima? so`rog`iga javob bo`lishi, jumladan hayvonlar va parrandalar nomi ham Nima? so`rog`iga javob bo`lishi yodga olinadi.

14-mavzu Matematika – fanlar otasi	Matematika – fanlar otasi 14-mavzu
<p> <b>4-mashq. Boshqotirmani yeching.</b></p> <p>Fermadagi  va  larning soni jami 50 ta.            Fermer ularning oyoqlarini sanab chiqdi – hammasi bo`lib 140 ta oyoq ekan.            Fermada nechta quyon va nechta jo`ja bor?</p> <p style="text-align: right;"><i>Iqboloy Razzoqova, matematik</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Boshqotirma matnidagi <i>Kim? Nima?</i> so`roqlariga javob bo`ladigan so`zlarni yozing.</li> </ul> <p> <b>Rasmdagi Kim? Nima? so`roqlariga javob bo`ladigan so`zlar ishtirokida 5 ta gap tuzing.</b></p>  <p style="text-align: right;">26</p>	<p> <b>5-mashq. Matnii o`qing. Ajratis ko`rsatilgan so`zlarga so`roq bering.</b></p> <p>Qadimda yevropaliklar hisob-kitob ishlarida 1, 2, 3 kabi arab raqamlarini emas, murakkab Rim raqamlarini ishlatishgan. Masalan, oddiy 8 raqamini bildirish uchun to`rtta belgi ishlatilgan – VIII. Buyuk bobomiz <b>Al-Xorazmiy</b> esa butun dunyoga raqamlardan qanday foydalanish kerakligini o`rgatgan olimdir. U 0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9 kabi raqamlardan foydalanish hisob-kitob uchun juda ham qulay ekanini isbotlab berdi.</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Matndagi <i>Kim? Nima?</i> so`roqlariga javob bo`ladigan so`zlarni alohida qatorlarga yozing.</li> </ul> <p> <b>6-mashq. She`riy boshqotirmaning javobini toping.</b></p> <p><b>Qaysi og`ir?</b></p> <p>Beshta bir xil apelsin,            Oltita bir xil nokdan            O`lchasak tarozida,            Biroz og`irroq ekan.            Bundan qilib xulosa –            Qaysi og`ir, topilsin:            Yettita bir xil nokmi,            Yoki olti apelsin?!</p> <p style="text-align: right;"><i>Negmurod Guliyev</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• <i>Nima?</i> so`rog`iga javob bo`ladigan so`zlarni toping.</li> </ul>  <p style="text-align: right;">27</p>

4-mashq ona tili darsida fanlararo integratsiyaning yaqqol namunasidir.

 **4-mashq. Boshqotirmani yeching.**

Fermadagi  va  larning soni jami 50 ta.  
 Fermer ularning oyoqlarini sanab chiqdi – hammasi bo`lib 140 ta oyoq ekan.  
 Fermada nechta quyon va nechta jo`ja bor?

*Iqboloy Razzoqova, matematik*

- Boshqotirma matnidagi *Kim? Nima?* so`roqlariga javob bo`ladigan so`zlarni yozing.

4-mashq ona tili darsida fanlararo integratsiyaning yaqqol namunasidir. Mashqda berilgan boshqotirma bevosita matematika fani bilan aloqador. Mashq to`rt bosqichda bajariladi. Mashqni bajarishda qoida yodga olinganidan so`ng birinchi bosqichda boshqotirma bilan tanishib chiqiladi. Quyonlarda to`rttadan, jo`jalarda esa 2-tadan oyoq bo`lishini esga oladilar. Bu esa o`z navbatida ona tili fanini boshlang`ich sinflarda o`tiladigan tabiiy fanga va yuqori sinflarda o`tiladigan zoologia faniga bog`laydi. Ikkinchi bosqichda boshqotirmaning javobi aniqlanadi. Bunda matematik bilimlar yodga olinadi. Uchinchi bosqichda mashqning asosiy shartiga o`tiladi, ya`ni mashq matnidan Kim? va Nima? so`rog`iga javob bo`luvchi so`zlar aniqlanadi. To`rtinchi bosqichda esa daftarga quyidagicha yoziladi:

Kim?

fermer

Nima?

quyon

jo`ja

oyoq


ferma

O`quvchilar bu mashqni bajarish orqali matematika va tabiiy fanlarda olgan bilimlarini yodga oladilar, ona tili fanidan o`rgangan yangi bilimlarini mustahkamlaydilar.

2-sinf ona tili darsligining 27-sahifasida keltirilgan 6-mashqda ham fanlararo integratsiyani ko`rishimiz mumkin. O`quvchilarga bu mashqni bajartirishdan oldin shaxs va narsa nomini bildirgan so`zlar va ularga beriladigan so`roqlar mavzulari takrorlab olinadi. Shaxs nomini bildirgan so`zlar Kim? so`rog`iga, narsa nomini bildirgan so`zlar esa Nima? so`rog`iga javob bo`lishi, shu jumladan nima Nima? so`rog`iga javob bo`luvchi so`zlar qatiriga meva nomalari ham kirishi yodlariga solinadi. Shundan so`ng mashq bajartiriladi.




**6-mashq. She'riy boshqotirmaning javobini toping.**



**Qaysi og'ir?**

Beshta bir xil apelsin,  
Oltita bir xil nokdan  
O'lchasak tarozida,  
Biroz og'irroq ekan.  
Bundan qilib xulosa –  
Qaysi og'ir, topilsin:  
Yettita bir xil nokmi,  
Yoki olti apelsin?!



*Negmurod Guliyev*

- *Nima?* so`rog`iga javob bo`ladigan so`zlarni toping.



Birinchi qadamda apelsin hamda nok mevalarining ko`rinishi, ularning foydalari haqida o`quvchilardan so`raladi. Bu esa o`quvchilarni tabiiy fanda olgan bilimlarini esga olishga undaydi. Ikkinchi qadamda boshqotirma matni bilan tanishib chiqiladi va javobi topiladi, ya`ni yettita bir xil nok va oltita bir xil apelsinning tengligi aniqlanadi. Uchinchi qadamda nima? so`rog`iga javob bo`luvchi so`zlar aniqlanadi. To`rtinchi qadamda quyidagi ko`rinishda daftarga yoziladi:

Nima? - apelsin, nok, tarozi

Bu kabi mashqlar o`quvchilar bilimlarini mustahkamlashga va olgan bilimlarini hayotda qo`llay olishlariga ko`maklashadi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang`ich maktablarda fanlararo aloqadorlikni tashkil etish orqali o`quvchilarga ham nazariy, ham amaliy bilimlarni teng ravishda berib borishadi. Bu o`quvchilarning irodasini, ijodkorligini, moslashuvchanligini rivojlantiradi va hamkorlik qilishni ham o`rgatadi. Natijada o`quvchi har qanday muammoga real tomonlama yondashib, yechim topish usullarini o`rganib chiqadi va tanqidiy fikrlay boshlaydi. Bundan tashqari o`quvchilarni qiziqishi orqali kasb tanlashga ham to`g`ri yo`naltirib boriladi. O`quvchilar bir vaqtning o`zida bitta fan doirasida emas, balki boshqa fanlar haqida ham yangi ma`lumotlarga ega bo`lishadi.

#### Adabiyotlar:

1. Ona tili. Umumiy o`rta ta`lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik.III qism./S.D.Kuranov-Toshkent: "Novda Edutainment", 2023.-96b.
2. « Boshlang`ich ta`lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiya» o`quv qo`llanma R. Mavlyanova, N.Raxmankulova Toshkent «Voris-Nashriyot» 2013.
3. «Boshlang`ich ta`limda fanlararo integratsiya» maqolasi B.O.Zokirxonova, M.N.Abdurasulova.
4. Internet tarmoqlar

#### РЕЗЮМЕ

Bugungi kunda fanlarni o`qitishda jahon tajribalaridan foydalanish davr talabi hisoblanadi. Shu o`rinda xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik, fanlar integratsiyasi asosida fanlarni o`qitishni yo`lga qo`yish muhim hisoblanadi. Ushbu maqola boshlang`ich ta`lim tizimida fanlararo integratsiyaning ahamiyatiga bag`ishlangan.

#### РЕЗЮМЕ

Сегодня использование мирового опыта в преподавании предметов является требованием времени. В этом месте важно подготовиться к международному обучению, наладить преподавание предметов на основе интеграции предметов. Данная статья посвящена важности междисциплинарной интеграции в системе начального образования.

#### SUMMARY

Today, the use of world experiences in the teaching of subjects is the demand of the times. In this place, it is important to prepare for international studies, to establish the teaching of subjects based on the integration of subjects. This article is devoted to the importance of interdisciplinary integration in the primary education system.